



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 160 sahifa,
2-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики	137
<i>Каримбаев Ниетбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	
Инклюзивное образование в Республике Узбекистан: сравнение с мировым опытом	144
<i>Пирманова Бахора Эшмухаммадовна</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqatning pedagogik ahamiyati	148
<i>Olimova Sarvara Sobitxon qizi</i>	
Bo'lajak defektologlarni oila bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari	152
<i>M. B. Muxtorova</i>	
Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bor bolalarni talaffuzga o'rgatish metodlari	156
<i>Bo'ronova Suksoraxon Behzodjon qizi</i>	

MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISHIDA NUQSONI BOR BOLALARNI TALAFFUZGA O'RGATISH METODLARI

Bo'ronova Suksoraxon Behzodjon qizi

Qo'qon davlat universiteti

Maxsus pedagogika-surdotarjimonlik yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Abstract: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bor bolalarda to'g'ri talaffuzni shakllantirishning psixofiziologik asoslari hamda samarali korreksion-pedagogik metodlari ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Talaffuzni rivojlantirish jarayonida fonematik eshituvni shakllantirish, artikulyatsion apparat motorikasini rivojlantirish, nutqiy nafasni me'yorlash-tirish, vizual va taktil tayanchlardan foydalanish hamda logoritmik mashqlarning ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, multimodal yondashuv va zamonaviy texnik vositalardan foydalanish samaradorligi yoritilib, ko'xlear implantli bolalar bilan ishlashda individual-differensial yondashuvning zarurligi ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim amaliyotida talaffuzni shakllantirish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Key words: talaffuz, fonematik eshituv, artikulyatsion motorika, nutqiy nafas, multimodal yondashuv, eshitishida nuqson, ko'xlear implant, surdopedagogika, nutqiy rivojlanish, korreksion pedagogika.

Annotatsiya: The article provides a scientific analysis of the psychophysiological foundations of correct pronunciation formation in preschool children with hearing impairments and examines effective corrective-pedagogical methods. Particular attention is given to the development of phonemic hearing, articulation motor skills, normalization of speech breathing, the use of visual and tactile supports, and the significance of logorhythmic exercises. The effectiveness of a multimodal approach and modern technical tools is highlighted, emphasizing the importance of an individual-differentiated approach when working with children using cochlear implants. The research findings contribute to improving the process of pronunciation development in preschool educational practice.

Kalit so'zlar: pronunciation, phonemic hearing, articulation motor skills, speech breathing, multimodal approach, hearing impairment, cochlear implant, surdopedagogy, speech development, corrective pedagogy.

Аннотация: В статье научно обоснованы психофизиологические основы формирования правильного произношения у детей дошкольного возраста с нарушением слуха, а также проанализированы эффективные коррекционно-педагогические методы. Рассматриваются вопросы развития фонематического слуха, артикуляционной моторики, нормализации речевого дыхания, использования визуальных и тактильных опор, а также значение логоритмических упражнений. Особое внимание уделяется мультимодальному подходу и применению современных технических средств, подчеркивается необходимость индивидуально-дифференцированного подхода в работе с детьми с кохлеарными имплантами. Результаты исследования направлены на совершенствование процесса формирования произношения в практике дошкольного образования.

Ключевые слова: произношение, фонематический слух, артикуляционная моторика, речевое дыхание, мультимодальный подход, нарушение слуха, кохлеарный имплант, сурдopedagogika, речевое развитие, коррекционная педагогика.

KIRISH

Zamonaviy inklyuziv ta'lim konsepsiyasi sharoitida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanishini ta'minlash dolzarb pedagogik vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqning shakllanish jarayoni murakkab psixofiziologik mexanizmlarga asoslanadi va bevosita eshituv analizatorining funksional holati bilan uzviy bog'liqdir. Eshitish og'zaki nutqni egallashning tabiiy fiziologik asosi hisoblanadi. Bola atrof-muhitdan kelayotgan nutq tovushlarini eshitish, ularni differensial farqlash, taqlid qilish hamda bosqichma-bosqich mustaqil ravishda takrorlash orqali og'zaki nutqni o'zlashtiradi.



Eshituv funksiyasidagi o'ziga xos cheklanishlar esa mazkur jarayonning to'laqonli shakllanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Natijada fonematik eshituv, tovushlar differensiasiyasi, artikulyatsion koordinatsiya hamda nutqiy nafas kabi muhim komponentlarni rivojlantirish uchun maxsus pedagogik yondashuv zarur bo'ladi. Shu bois eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlar nutqiy rivojlanishni tizimli va izchil qo'llab-quvvatlashga qaratilishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy tadqiqotlarda (L.S. Vigotskiy, R.M. Boskis, N.N. Malofeyev va boshqalar) eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari eshituv tajribasining cheklanganligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri nutq apparatining intensiv rivojlanish bosqichi hisoblanib, aynan shu davrda tashkil etilgan korreksion-pedagogik ishlar keyingi ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omil sanaladi. Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda talaffuzdagi o'ziga xosliklar tovushlarni noto'g'ri qo'yish yoki almashtirish, jarangli va jarangsiz tovushlarni differensial farqlashdagi qiyinchiliklar, urg'u va intonatsiya xususiyatlarining yetarli shakllanmaganligi hamda nutqning fonetik jihatdan noaniq ifodalani-shida namoyon bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda koxlear implantatsiya va zamonaviy eshitish apparatlarining keng joriy etilishi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Shu bilan birga, texnik vositalardan samarali natijaga erishish pedagogik reabilitatsiya bilan uzviy uyg'unlikda amalga oshiril-gandagina ta'minlanadi. Shu bois talaffuzni shakllantirish jarayoni ilmiy asoslangan metodik yondashuv, izchillik hamda individuallashtirilgan ta'lim tamoyillariga tayangan holda tashkil etilishi zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarda talaffuzni rivojlantirish nafaqat fonetik to'g'rilikni ta'minlaydi, balki ularning kommunikativ kompeten-siyasi, ijtimoiy moslashuvi, kognitiv rivojlanishi hamda keyingi savod o'rganish jarayoniga tayyorgarligini ham belgilaydi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda talaffuzning shakllanishi ko'p omilli xarakterga ega bo'lib, u sensor, motor va kognitiv komponentlarning o'zaro integratsiyasi bilan tavsiflanadi. Nutq jarayoni akustik signalni qabul qilish (afferent bosqich), uni markaziy nerv tizimida qayta ishlash hamda artikulyatsion apparat orqali qayta ifodalash (efferent bosqich)dan iborat murakkab neyropsixologik mexanizm hisoblanadi. Eshituv analiza-torining funksional xususiyatlari fonematik eshituvning rivojlanishi, akustik nazorat mexanizmining shakllanishi va o'z nutqini auditiv monitoring qilish imkoniyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli tovushning artikulyat-sion modeli bilan uning akustik obrazi o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash maqsadli pedagogik ta'sirni talab etadi. Maktabgacha yosh davrida ushbu jarayon nutqiy ontogeneznining tabiiy rivojlanish bosqichlari bilan cham-barchas bog'liq bo'lib, talaffuz ustida olib boriladigan ishlar artikulyatsiyani takomillashtirish bilan bir qatorda fonematik idrokni, nutqiy nafasni va eshituv differensiasiyasini ham kompleks ravishda rivojlantirishni nazarda tutishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Talaffuzni o'rgatish jarayoni tizimli, bosqichma-bosqich va kompleks xarakterga ega bo'lishi zarur. Ushbu jarayon, avvalo, fonematik eshituvni rivojlantirishni nazarda tutadi. Fonematik eshituv nutq tovushlarini farqlash, identifikatsiya qilish va tahlil etish qobiliyati bo'lib, u og'zaki nutqning fonologik asosini tashkil etadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda fonematik differensiasiyaning o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari kuzatilishi mumkin, natijada jarangli va jarangsiz, qattiq va yumshoq, portlovchi va sirg'aluvchi tovushlarni farqlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shu bois minimal juftliklar bilan ishlash, tovushning so'z boshida, o'rtasida va oxirida aniqlani-shini mashq qilish, tovush manbaini lokalizatsiya qilish hamda ritmik differensiasiya mashqlari orqali akustik analiz va sintez operatsiyalari rivojlantiriladi va fonologik tizim izchil shakllantiriladi.

Artikulyatsion gimnastika to'g'ri talaffuzni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, nutq apparatining motor komponentini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar tizimini o'z ichiga oladi. Nutq tovushlarining aniq va ravon hosil bo'lishi til, lab, pastki jag', yumshoq tanglay hamda yuz mushaklarining muvofiqlashtirilgan harakatiga bog'liqdir. Artikulyatsion mashqlar orqali orofasial mushaklar tonusi me'yorlashtiriladi, harakat amplitudasi kengaytiriladi va til hamda lablarning elastikligi oshiriladi, bu esa tovush hosil qilish jarayonining fiziologik barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, har bir tovushga xos artikulyatsion pozitsiyani shakllantirish, vizual nazoratni kuchaytirish va kinestetik sezgini rivojlantirish tovushni mustahkam qo'yish uchun zarur shart hisoblanadi. Artikulyatsion differensiasiyani rivojlantirish esa o'xshash artikulyatsion harakatlarni aniq ajratish imkonini beradi va fonetik aniqlikni ta'minlaydi.

Tovushni qo'yish jarayoni artikulyatsion modelni shakllantirish, uni bo'g'in va so'z tarkibida mustahkamlash hamda nutqda avtomatlashtirish bosqichlarini qamrab oladi. Mazkur jarayonda mexanik yordam, taktil-vibrat-sion usul, taqlid metodi va fonetik kontrast usullaridan foydalanish mumkin. Nutqiy nafasni shakllantirish ham

talaffuz jarayonining ajralmas qismi bo'lib, diafragmal nafasni rivojlantirish, uzoq va barqaror ekspiratsiyani ta'minlash hamda havo oqimini nazorat qilish orqali fonatsion barqarorlik mustahkamlanadi va nutq ravonligi oshadi. Logoritmika nutq, harakat va ritm uyg'unligiga asoslangan metod sifatida nutqning tempo-ritmik tuzilishini me'yorlashtirishga xizmat qiladi. Multimodal yondashuvda vizual, auditiv, kinestetik va taktil analizatorlarning birgalikda faollashuvi neyroplastiklik jarayonlarini kuchaytiradi va nutqiy malakalarni barqaror shakllantirishga yordam beradi.

Koxlear implantli bolalarda talaffuzni shakllantirish jarayoni implantatsiya yoshi, reabilitatsiya bosqichi va eshituv tajribasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, erta implantatsiya qilingan bolalarda fonematik tizimning shakllanishi va auditiv nazorat mexanizmining rivojlanishi yanada samarali kechishi kuzatiladi. Shu bilan birga, texnik vositalarning samaradorligi tizimli logopedik va surdopedagogik mashg'ulotlar bilan uyg'unlashgandagina to'liq namoyon bo'ladi. Talaffuz ustida ishlash tizimlilik, izchillik, individual yondashuv, ko'rgazmalilik, ongli o'zlashtirish va uzluksizlik tamoyillari asosida olib borilganda pedagogik samaradorlik oshadi.

Mazkur jarayon faqat fonetik va artikulyatsion komponentlar bilan cheklanmay, bolaning kognitiv rivojlanishi, ijtimoiy muhiti va kommunikativ motivatsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. E'tiborning barqarorligi, audial va vizual xotira, idrok aniqligi hamda taqlid qobiliyati tovushni qo'yish va avtomatlashtirish samaradorligini belgilaydi. Tovushni izolyatsiyada to'g'ri talaffuz qilish uning nutqiy kompetensiyada to'liq shakllanganini anglatmaydi; u turli nutqiy vaziyatlarda erkin qo'llanilgandagina barqaror ko'nikmaga aylanadi. Shu bois avtomatlashtirish va generalizatsiya bosqichlari izchil amalga oshirilishi zarur.

Nutq rivojlanishi uzluksiz jarayon bo'lib, u ta'lim muassasasi va oilaviy muhit hamkorligida samarali kechadi. Ota-onalarning faol ishtiroki, kundalik nutqiy muloqotni qo'llab-quvvatlashi va uy sharoitida mashqlarni davom ettirishi talaffuzni shakllantirish jarayonining barqarorligini ta'minlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, interaktiv multimediya dasturlari, vizual-auditiv trenajyorlar va biofeedback usullari o'z-o'zini nazorat qilish mexanizmini kuchaytirib, nutqiy rivojlanish samaradorligini oshiradi. Ilmiy manbalarda erta korreksion-pedagogik aralashuv, ayniqsa hayotning ilk 3–5-yilligi davrida, markaziy nerv tizimining yuqori plastiklik xususiyatlari bilan bog'liq holda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda talaffuzni shakllantirish sensor, motor, kognitiv va ijtimoiy komponentlarning o'zaro integratsiyasiga asoslangan, ilmiy asoslangan va tizimli tashkil etiladigan korreksion-pedagogik jarayondir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot tahlillari shuni ko'rsatadiki, eshitish funksiyasining o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari fonematik eshituvning shakllanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi, akustik differensiasiya jarayonini murakkablashtiradi hamda artikulyatsion avtomatizmning barqaror shakllanishini sekinlashtirishi mumkin. Shu bois talaffuz ustida olib boriladigan ishlar faqat tovushni mexanik qo'yish bilan cheklanmasdan, fonematik idrokni rivojlantirish, nutqiy nafasni shakllantirish, artikulyatsion apparat faoliyatini takomillashtirish hamda nutqni turli kommunikativ vaziyatlarda qo'llashni nazarda tutgan kompleks yondashuv asosida tashkil etilishi lozim.

Maqolada bayon etilgan metodik tizim, ya'ni fonematik eshituvni rivojlantirish, artikulyatsion gimnastika, tovushni qo'yish va avtomatlashtirish, multimodal yondashuv, logoritmika hamda ota-onalar bilan hamkorlik, talaffuzni shakllantirishning o'zaro integratsiyalashgan mexanizmini tashkil etadi. Ayniqsa, erta aralashuv tamoyili va individual-differensial yondashuv pedagogik samaradorlikning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, koxlear implantatsiya va raqamli pedagogik vositalardan foydalanish eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq ushbu texnologiyalar pedagogik reabilitatsiya jarayoni bilan uyg'unlashtirilgandagina yuqori natijadorlik ta'minlanadi. Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda to'g'ri talaffuzni shakllantirish ularning keyingi savod o'rganish jarayoniga tayyorgarligini, kommunikativ kompetensiyasini hamda ijtimoiy integratsiyasini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Shu bois mazkur yo'nalishda ilmiy asoslangan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga izchil joriy etish maxsus pedagogika sohasining ustuvor vazifalaridan biridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda talaffuzni shakllantirish murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, u fonematik eshituv, artikulyatsion motorika, nutqiy nafas hamda kognitiv rivojlanish komponentlarining o'zaro integratsiyasiga asoslanadi. Tadqiqot natijalari eshituv tajribasining o'ziga xos xususiyatlari fonetik-fonematik rivojlanish sur'atiga ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Shu bois korreksion-pedagogik ishlar ilmiy asosda, tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Multimodal yondashuv, logoritmika hamda individual-differensial ta'lim tamoyillari talaffuz ko'nikmalarini barqaror shakllantirishda muhim metodik omil hisoblanadi. Ayniqsa, erta aralashuv va ota-onalar bilan samarali hamkorlik nutqiy reabilitatsiya jarayonining natijadorligini sezilarli darajada oshiradi.



Shu asosda maktabgacha ta'lim muassasalarida fonematik eshituvni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus dasturlarni joriy etish, artikulyatsion mashqlarni muntazam va izchil qo'llash hamda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish tavsiya etiladi. Har bir bola uchun individual reabilitatsiya dasturini ishlab chiqish, shuningdek, pedagog va ota-onalar o'rtasida uzluksiz hamkorlikni yo'lga qo'yish talaffuzni shakllantirish jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 2016. – 352 с.
2. Боскис Р.М. Глухие и слабослышащие дети. – Москва: Просвещение, 2004. – 247 с.
3. Леонгард Э.И. Формирование устной речи у детей с нарушением слуха. – Москва: Владос, 2010. – 192 с.
4. Кузьмичева Е.П. Развитие слухового восприятия у детей с нарушением слуха. – Москва: Просвещение, 2001. – 160 с.
5. Филичева Т.Б., Чиркина Г.В. Логопедия: теория и практика. – Москва: Владос, 2020. – 240 с.
6. Жукова Н.С., Мастюкова Е.М., Филичева Т.Б. Логопедия. Основы теории и практики. – Москва: Просвещение, 2019. – 256 с.
7. Лалаева Р.И. Коррекция нарушений речи у дошкольников. – Санкт-Петербург: Союз, 2015. – 224 с.
8. Ауурова М.У., Axmedova Z.M. va b. Logopedik o'yinlar. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 156 b.
9. Fayziyeva U.Y. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 210 b.
10. Tavartkiladze G.A. Cochlear Implantation and Rehabilitation. – Moscow: GEOTAR-Media, 2018. – 320 p.
11. World Health Organization. World Report on Hearing. – Geneva: WHO, 2021. – 274 p.
12. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir). – Toshkent, 2020. <https://lex.uz/docs/-5013007>.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.